

**SHASHMAQOM AYTIM YO'LLARI VOSITASIDA YUQORI  
SINF O'QUVCHILARINI BADIY-G'OYAVIY TARBIYALASHNI  
SHAKLLANTIRISH**

**Mamajanova Muslimaxon Baxtiyor qizi**

Guliston Davlat Universiteti talabasi

**Ilmiy raxbar: Annakulova Dildora Baymuratovna**

Guliston Davlat Universiteti San'atshunoslik fakulteti

An'anaviy xonandalik va xalq cholg'ulari kafedrası o'qituvchisi

E-mail:[dildoraannakulova36@gmail.com](mailto:dildoraannakulova36@gmail.com)

+998938847001

+998998221180

**Anotatsiya:** Musiqiy madaniyatning barcha turlari kishilarga badiiy-estetik zavq beribgina qolmay, ilmiy tushunchalar bilan ifodalash g'oyat mushkul bo'lgan olam sirlari haqida bilimlar beradi, hayot haqiqa-tini badiiy-estetik vositalar orqali idrok etishga yaqindan yordam beradi. Inson borligini, ma'naviy taraqqiyotini musiqiy madaniyatisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Insoniyat tarixida o'chmas iz qoldirgan barcha allomalar musiqa va qo'shiqchilik san'atining boy imkoniyatlaridan to'la foydalanishga, san'at orqali ma'naviy kamolot cho'qqilarini zabt etishga muvaffaq bo'lganlar.

**Kalit so'zlar:** Shashmaqom,

**Kirish:** Shashmaqom bu bizning mumtoz musiqamiz hisoblanadi. 1-sinf dan 7-sinf ga qadar Musiqa madaniyati darsi 1 yilda 34 soat, haftasiga 1 soatdan olib boriladi. Yuqori sinf musiqa darsligida berilgan mavzular nazarimda ko'p kiritilgan. Darslikka kiritilgan mavzularni to'liq va mukammal

o'qitish uchun belgilangan soatlar kamlik qiladi. Taklifim shuki Musiqa madaniyati darslarini 9-sinfgacha uzaytirilsa, yana sinfni ikki guruhga bo'lib ish olib borilsa, amaliy va nazariy mashg'ulotlar olib borilsa maqsadga muvofiq bo'lar edi. 6-7sinf o'quvchilarini badiiy g'oyaviy tarbiyalashda biz Shashmaqomdan 5 ta asrlarni tanlab oldik ushbu asarlar ritm jihatidan, melodik xususiyatlari jihatidan, diopozoninig rang-barangligi jihatidan ancha yengil bo'lib o'quvchilar asarlarni qabul qilishi qiyinchilik tug'dirmaydi. Biz ushbu asarlarni o'quvchilarga o'rgatish jarayonida ularning badiiy-g'oyaviy jihatlarini tarbiyalaymiz. Demak ushbu tanlab olingan asarlar nihoyatda badiiy mukammal asarlar, bunga shubha yo'q. G'oyaviy Mukammal asarlarni o'quvchilarga o'rgatishda asar ohanglarini singdirish asosida biz o'quvchilarni turli hil yot g'oyalar, turli hil shovqinli musiqa taassurotlardan saqlash biz o'qituvchilarning oldimizga qo'yilgan en ezgu maqsadimiz.<sup>1</sup>

**Asosiy qism:** Bugungi kunga kelib mustaqil O'zbekistonda xalqning uzoq va yaqin o'tmishiga, ajdodlar tomonidan yaratilgan badiiy boyliklarga bo'lgan qiziqish va e'tibor yanada kuchayib bormoqda. Buning natijasida maqomlarning o'rni va ahamiyati qadrini topdi deyish mumkin. An'anaviy tarzda bizgacha yetib kelgan maqom asarlarining ilhombaxsh qudrati ijodkor zamondoshlarimiz – bastakor va kompozitorlarni, sozanda va xonandalarni hamisha ijodiy izlanuvchanlikka chorlaydi.

---

<sup>1</sup> Matyoqubov O. Maqomot. (ilmiy-ommabop monografiya) T., 2004

Maqomlarning nazariy va amaliy tomonlari bor. Ularning nazariy jihatlarini Sharq musiqasiga bag'ishlangan risolalarda o'z ifodasini topgan. O'zbek-Tojik xalqlaridagi maqomlarning amaliy tomonlarini esa, ustoz sozanda va xonandadan shogirdga og'zaki o'tib, bizgacha yetib kelgan maqomlar turkumidagi birdan-bir janr Shashmaqom ko'rinishida tasavvur etish mumkin.

Shashmaqom ikki yuz ellikka yaqin kuy va ashulalardan iborat hamda o'zbek -tojik xalqlari musiqa meorosining salmoqli qismini tashkil etadi. Maqomlar, shu jumladan, Shashmaqom masalasi musiqa madaniyatimiz tarixida juda kam o'rganilgan sohalar dandir. Ularni o'rganish, nazariy taxlil qilish ishi esa, yuqorida aytilganidek, juda murakkab muammodir. Shashmaqom aytim yo'llari vositasida o'quvchilarni badiiy- g'oyaviy tarbiyalashda o'zbek xalqining atoqli maqom ijrochilari haqida, ularning hayot va ijod yo'llari, yillar davomida ijro qilgan o'lmas asarlari haqida alohida to'xtalib o'quvchi yoshlarga yetarlicha ma'lumotlarni yetkazish kerakdir. Shashmaqom aytim yo'llaridagi asarlarni ijro etish iste'dodli, yuksak malakaga ega bo'lgan hofizlar, ustozlar, tomonidan ijro etib kelingan. Ularning mazmuni murakkab va mukammaldir. Shu bois ularni ijro etish uchun katta san'atkorlik tajribasi mahorat, malaka va musiqiy savod kerak bo'ladi. Shashmaqom aytim yo'llari asarlari qadimdan yoshlarga ustozlar tomonidan o'rgatilib kelingan. Buni odatda, ustoz – shogird an'anasi deb yuritiladi va u hozirgacha davom etib kelmoqda. Aytim yo'llari yirik shakldagi kuy va ashulalardan tarkib topgan. Ular mazmunan va shaklan rang – barangdir.

Shashmaqom hamda Xorazm maqomlari majmuasidagi Dugoh makrmida tarkibiy cholg'u kuy va ashula yo'llari: "Muxammasi Chorgoh", "Talqini Chorgoh", "Nasri Chorgoh", "Ufari Chorgoh", "Savti Chorgoh", "Talqinchai Savti Chorgoh", "Qashqarchai Savti Chorgoh", "Soqiynomai Savti Chorgoh", "Ufari Savti Chorgoh". Ular parda tuzilishining dastlabki to'rt pog'onasi O'n ikki makom Chorgoh sho'basiga moye keladi. Chorgoh maqom yo'llari yorqin va yoqimli yangraydi, tinglovchida xush kayfiyat uyg'otadi. Shashmaqom hamda Xorazm maqomlari majmuasidagi Dugoh makrmida tarkibiy cholg'u kuy va ashula yo'llari: «Muxammasi Chorgoh», "Talqini Chorgoh", "Nasri Chorgoh", "Ufari Chorgoh", "Savti Chorgoh", "Talqinchai Savti Chorgoh", "Qashqarchai Savti Chorgoh", "Soqiynomai Savti Chorgoh", "Ufari Savti Chorgoh". Ular parda tuzilishining dastlabki to'rt pog'onasi O'n ikki makom

Chorgoh sho‘basiga moye keladi. Chorgoh maqom yo‘llari yorqin va yoqimli yangraydi, tinglovchida xush kayfiyat uyg‘otadi.

Chorgoh sho‘balarining o‘zgacha uslubiy yo‘llari ham yaratilgan. Chunonchi, Toshkent, Farg‘onada mashhur Chorgoh ashula yo‘llari, “Yovvoyi Chorgoh”, surnay kuylari, Sodirxon Hofiz (Bobosharifov) yaratgan “Chorgohi Munojot” shular jumlasidan. Mazkur vohalarda mashhur Chorgoh yo‘llari 5 qismli yirik shakldagi ashula turkumidan iborat. “Chorgoh 1” saraxbor, “Chorgoh 2” tarona, “Chorgoh Z” savt, “Chorgoh 4” qashqarcha, “Chorgoh 5” va Chorgoh 6” ufar doyra usullari asosida ishlangan;

Chorgoh sho‘balarining o‘zgacha uslubiy yo‘llari ham yaratilgan. Chunonchi, Toshkent, Farg‘onada mashhur Chorgoh ashula yo‘llari, “Yovvoyi Chorgoh”, surnay kuylari, Sodirxon Hofiz (Bobosharifov) yaratgan “Chorgohi Munojot” shular jumlasidan. Mazkur vohalarda mashhur Chorgoh yo‘llari 5 qismli yirik shakldagi ashula turkumidan iborat. “Chorgoh 1” saraxbor, “Chorgoh 2” tarona, “Chorgoh Z” savt, “Chorgoh 4” qashqarcha, “Chorgoh 5” va Chorgoh6” ufar doyra usullari asosida ishlangan;

Eron dastgohlari, ozarbayjon mug‘omlari va uyg‘ur muqomlaridan birining nomi. Mazkur Chorgoh larning parda tuzilishi birbiriga yaqin bo‘lsada, kuyohanglari, usul va uslublari uz milliy va mahalliy musiqasiga xosdir. Eron dastgohlari, ozarbayjon mug‘omlari va uyg‘ur muqomlaridan birining nomi. Mazkur Chorgoh larning parda tuzilishi birbiriga yaqin bo‘lsada, kuyohanglari, usul va uslublari uz milliy va mahalliy musiqasiga xosdir<sup>2</sup>.

Maqom manbalari qatorida “goh” (ya‘ni Dugoh, Segoh, Chorgoh, Panjgoh shaklidagi) kuy tizilmalari ham e‘tiborga molikdir. Aksariyat olimlar bu toifa kuylar negizi qadimiy kitoblarni ma‘lum ohanglarda o‘qish an‘anasiga dahldorligini, shu jumladan “Avesto” dagi “got” madhiyalariga borib taqalishini faraz qiladilar. Bu o‘rinda Avestodagi “Gatheha” so‘zi keyinchalik daroy (forsiy) tiliga “Gah” shaklida o‘tganligi va yana qator holatalar inobatga

olinadi. Maqom manbalari qatorida “goh” (ya’ni Dugoh, Segoh, Chorgoh, Panjgoh shaklidagi) kuy tizilmalari ham e’tiborga molikdir. Aksariyat olimlar bu toifa kuylar negizi qadimiy kitoblarni ma’lum ohanglarda o’qish an’anasiga dahldorligini, shu jumladan “Avesto” dagi “got” madhiyalariga borib taqalishini faraz qiladilar. Bu o’rinda Avestodagi “Gatheha” so’zi keyinchalik daroy (forsiy) tiliga “Gah” shaklida o’tganligi va yana qator holatalar inobatga olinadi. Bizga ma’lum “goh” kuylarining tahlili esa bu namunalarning ildizlari faraz etilayotgan davralardan-da qadimiyroq ekanligini ko’rsatadi. Xususan, Farg’ona-Toshkent maqomlaridagi Dugoh-Husayniy I kuyi negizida ikki tayanch pardali ohang tizilmasi, Segoh cholg’u kuyida, shuningdek, Shashmaqomning Tasnifi Segoh, Xorazm Segoh maqomining Tani maqom qisimlarida esa uch tayanch pardali ohang tizilmalari borligi ayon bo’ladi. Etnomusiqashunos olimlarning qo’lga kiritgan so’nggi yutuqlaridan ma’lumki, bu kabi tayanch tovushli kuy namunalari xalq musiqiy tafakkurining dastlabgi kurtaklaridir.

Aslida ana shu kabi maqomlarning yeti asosiy pardasi va ular asosida (Dugoh, Segoh, Chorgoh ba bosh.) ko’hna kuy tizilmalarining quyidan yuqoriga qarab bosqichma bosqich (I, II, III, IV va h.k.) rivojlanib, pirovardida yangi sifatlar kashf etish uslubi tariqat manzillariga xos jarayonlarning badiiy aksi tarzida shakllangan bo’lsa kerak. Har holda O’n ikki maqom tizimini bizgacha “Shashmaqom”, “Xorazm maqomlari” va “Farg’ona-Toshkent maqom yo’llari”da yetib kelgan namunalarning qiyosiy tahlili shu kabi xulosalarga ham asos bo’lmoqda. Bunga Shashmaqom, Xorazm maqomlari va Farg’ona-Toshkent maqom yo’llaridagi “Dugoh”, “Segoh”, “Chorgoh” nomli namunalar yaqqol misol bo’la oladi. Shundayki, dastlab juda oddiy shakllarda bo’lgan goh kuy tizilmalari O’n ikki maqom tizimining sho’balari guruhidan o’rin olgan bo’lib, ularni mumtoz talablar darajasida rivoj toptirish maqsadida har biriga alohida-alohida mukammal parda uyushmalari biriktirilgan edi.

---

<sup>2</sup> Ishoq Rajabovning “Maqomlar” Toshkent -2006

Shunga binoan, Dugoh sho`basi Husayniy maqomida, Segoh sho`basi Hijoz maqomida, Chorgoh sho`basi Zangula maqom pardalarida bayon etilib rivojlantirilgan (N. Kavkabiylar tasnifi). Buning pirovardida esa sho`balarning birlashtirilgan maqom pardalariga tabiiy singib kirish jarayoni r`oy bergan. Bunga quyidagi misolni dalil keltirish mumkin. Xorazm maqomlaridan o`rin olgan “Maqomi Segoh” aytim yo`lida dastlab uch tovushdan iborat bo`lgan Segoh kuy-ohang qurilmasi “re” pardasidan boshlab birin-ketin yettita asosiy bosqichlarni zabt etadi. To`g`ri, kuy oqimi vaqti-vaqti bilan “zabt” etilgan bosqichlarga t`olqinsimon harakatlar ila qaytib, ularni takrorlab turadiki, bu hol umuman musiqaning o`ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqadi. Farg`ona-Toshkent maqom yo`llaridan “Segoh” aytim yo`lida ham shu kabi musiqiy jarayonlar yuzaga keladi. Tayanch bosqichlari o`rnida hozir bo`lgan tovushlar uyushmasini O`n ikki maqom pardalariga qiyosiy o`rganilganda u hijozga muvofiq ekanligi ma`lum bo`ladi.

Demak dastlab ovoz ko`lami ikki (Dugoh), uch (Segoh) va to`rt (Chorgoh) tovushlari doirasida bo`lgan sodda ko`rinishli ko`hna kuy tizimlarining muayyan maqomlarning yettita asosiy pardalari bo`ylab bosqichma-bosqich rivojlovi natijasida ularning yangi sifat (ye`ni maqom) darajalari yuzaga kelgan edi, deyish mumkin. Aynan shu sifatlari darajasida ular keyinchalik yuzaga kelgan yangi maqomot (Shashmaqom, Xorazm maqomlarida-Dugoh va Segoh, Farg`ona- Toshkent maqom yo`llarida Dugoh, Segoh va Chorgoh maqomlari) tizimidan o`rin olgan edi. Mantiqiy xulosa shuki, bu jarayonda avvallari qo`llanib kelingan Segohi-Hijoz, Dugohi-Husayniy, Chorgohi-Zangula kabi sho`ba va maqom birlashtirmalarini anglatuvchi qo`sh nomlar asta-sekin o`z mohiyatini yo`qota boshlagan. Chunki, sho`ba (kuy) tizimlari maqom pardalarida rivojlanishi davomida ularga shu qadar tabiiy singib ketgan ediki,

natijada bu sho`balarning nomlari nafaqat ushbu pardalar doirasidagina tafakkur etiluvchi yangi kuylarni, balki ayni paytda, ana shu mukammal pardalarning o`zini ham ifoda etuvchi tushunchalarga aylangan edi. Binobarin, bugungi kunda Dugoh, segoh va Chorgoh nomlari bilan mashhur maqom namunalari mazmunida Husayniy, Hijoz va Zangula maqomlari pardalarining “hayoti” ham davom etayotganligini e`tirof etish kerak.<sup>3</sup>

❖ *Binobarin, olingan natijalar asosida tasavvufdagi “solik-suluk” nisbatini O`n ikki maqom tizimida shunday tasavvur etish imkoni yuzaga keldi:*

❖ *mukammal pardalar (tovushqatorlar) sifatida tasnif etilgan O`n ikki maqomning har biri “suluk” (musiqiy “yo`l”) o`rnida namoyon bo`ladi;*

❖ *xalq musiqasining ko`hna qatlamlariga mansub sodda tuzilishli (Dugoh, Segoh, Chorgoh, Panjgoh, Navro`zi Bayot va b.) sho`ba kuy tizilmalari solik “y`olovchi” siymosini o`ziga xos razm etadi;*

---

<sup>3</sup> Annakulova Dildora Baymuratovna. (2025). Historical Formation of The Samarkand School of Epistle-Writing and The Place of Bakhshi Performance Traditions. *International Journal of Pedagogics*, 5(03), 59–63. <https://doi.org/10.37547/ijp/Volume05Issue03-17>

❖ *musiqa amaliyotida sho`ba kuy tizilmalari muayyan maqomning parda bosqichlariga tayangan holda zaruriy (komil) sifat darajasiga qadar rivojlanadi.*

*musiqa amaliyotida sho`ba kuy tizilmalari muayyan maqomning parda bosqichlariga tayangan holda zaruriy (komil) sifat darajasiga qadar rivojlanadi* Binobarin, bu jarayonda mukammal pardalarning yettita asosiy tovush-bosqichlari maqom (ya`ni kuy tizilmasining tayanch pardalari) sifatida qo`llaniladi<sup>3</sup>.

Shashmaqomning ijro etilish jarayoniga quyidagicha ta'rif berilgan: "Bizda "Shashmaqom"dan birontasi chalinmoqchi bo'lg'anda majlisning tubandagi yo'sinda borishi lozim ko'rilgandir: ikki tanbur, bir dutor, yohud ikki tanbur bilan bir qo'buz (qo'buz bo'lmag'anda uchinchi tanbur kamoncha bilan chalinadur), ikki yo uch hofiz o'tiradurlar, cholg'ular ishga kirishadirlar. Bir kishi "chirmanda" (doira daf) bilan usul saqlaydir. Cholg'uchilar chirmandaning ko'rsatgani usulga yergashadirlar-da, istalgan maqomning mushkilot butog'ini chala boshlaydirlar. Mushkilot bitgach, to'xtamasdan, Nasr butog'iga o'tiladur. "Ayniqsa, Shashmaqomning ashula yo'llariga oid quyidagicha ta'riflar mavjud. Ya'ni, Ishoq Rajabovning "Maqom asoslari" nomli o'quv qo'llanmasida ta'kidlanishiga ko'ra: "Shashmaqom o'zbek halqi musiqa merosida juda katta o'rin tutadi. Bu maqomning aytim yo'llarida milliy musiqaning boy ohanglari, ritmik xususiyatlari, doira usullari, kuylarga she'r matnlarini moslab tushira bilish qoidalari bilan bog'liq qator jihatlar mujassamlangan." deya ta'kidlangan.<sup>4</sup>

**Xulosa:** Maqom aytim va cholg'u yo'llarini tahlil qilar ekanmiz, bu namunalarda g'alaba, zafar g'oyasi bosh o'rin tutishiga iqror bo'lamiz. Yana e'tiborlisi shundaki, bu g'oya nafaqat alohida aytim qismi, balki qismlarni qamragan turkum va bu turkumlarni o'z ichiga olgan Shashmaqom darajasida namoyon bo'ladi. Chunonchi, ilk qism tarzida kelgan Saraxbor (bosh xabarlar)da kuy mavzusi dastlab cholg'u muqaddimasida sadolanib, so'ngra hofizning ovozi tarovati ila daromad-miyonxat-dunasr shakliy tuzilmalarida quyi, o'rta va yuqori tabaqa (registr)larda bir maromli bosqichda yuksaladi. Unda yurak urishi yanglig' kelgan ikki hissali ("bak, bum") vazmin doyra usuli va shunga muvofiq tanlangan aruz vaznidagi mumtoz she'riyat (Tabriziy, Rumi, Hofiz, Jomiy, Navoiy, Lutfiy va boshqalar) namunasi falsafiy mushohadalarga chorlashi ila o'zlikni yanada teran anglashga hamda botiniy tuyg'ular bilan yo'g'rilgan ruhiy holatning nafs to'siqlari (parda) ichra bosqichma-bosqich rivojiga muhim "turtki" beradi. Shu tariqa mavzuning bir

oktava yuqorida joylashgan dunasr (du–ikki, nasr–g‘alaba)dagi zafarli yo‘li boshlanib, unda ma’naviy yuksalishning cho‘qqisi bo‘lgan bir necha avj to‘lqinlari va ularning qalb idroki bilan bog‘liq mo‘‘jizaviy vajd (zavqu shavq) holatlari yuzaga keladi. Bu o‘rinda mantiqiy qo‘llangan namudlar va kuy mavzusi qiyosida keskin tafovutlar kuzatilmaydi, zero, Saraxbor avjida kelgan yangi kuy tuzilmalari asosiy mavzuning izchil rivoji davomida erishgan yangi sifat namunasi tarzida idrok etiladi.

---

<sup>4</sup> Annakulova Dildora Baymuratovna. (2025). Historical Formation of The Samarkand School of Epistle-Writing and The Place of Bakhshi Performance Traditions. *International Journal of Pedagogics*, 5(03), 59–63. <https://doi.org/10.37547/ijp/Volume05Issue03-17>

Shu yanglig‘ avjlar ijrosidan so‘ng kuy mavzusi tushirim vositasida yana dastlabki tayanch pardaga qaytib to‘xtam hosil qiladi. Saraxborning hozirda ko‘rilgan shaklu shamoyili doyra usullari “oddiydan – murakkabga” tamoyili asosida tartiblangan keyingi qismlar uchun namunaviy asos bo‘lib xizmat qiladi<sup>5</sup>.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar.**

1. Matyoqubov O. Maqomot. (ilmiy-ommabop monografiya) T., 2004
2. Ishoq Rajabovning “Maqomlar” Toshkent -2006
3. Annakulova Dildora Baymuratovna. (2025). Historical Formation of The Samarkand School of Epistle-Writing and The Place of Bakhshi Performance Traditions. *International Journal of Pedagogics*, 5(03), 59–63. <https://doi.org/10.37547/ijp/Volume05Issue03-17>

4. MUSIQA MASHG‘ULOTLARI JARAYONIDA CHOLG‘U ANSAMBLARINI TASHKILLASHTIRISH. (2025). Modern Education and Development, 21(1), 192-202. <https://scientific-jl.com/mod/article/view/3970>
5. Abdurasulov B. O‘ZBEK XALQ MUSIQASI ASOSIDA O‘QUVCHILARNI MA’NAVIY AXLOQIY FAZILATLARINI SHAKLLANTIRISHNING AHAMIYATI <https://cyberleninka.ru/article/n/o-zbek-xalq-musiqasi-asosida-o-quvchilarni-ma-naviy-axloqiy-fazilatlarini-shakllantirishning-ahamiyati/viewer>

---

<sup>5</sup>Abdurasulov B. O‘ZBEK XALQ MUSIQASI ASOSIDA O‘QUVCHILARNI MA’NAVIY AXLOQIY FAZILATLARINI SHAKLLANTIRISHNING AHAMIYATI <https://cyberleninka.ru/article/n/o-zbek-xalq-musiqasi-asosida-o-quvchilarni-ma-naviy-axloqiy-fazilatlarini-shakllantirishning-ahamiyati/viewer>